


# Aholining inflyatsion kutilmalari

Mart oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan biroz pasayib, 11 foizga teng bo'ldi.



Mart, 2026

Jami 3 239 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2025										2026	
	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	59	57	50	51	48	46	46	49	50	48	44	45
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	47	49	45	45	41	41	42	40	47	47	40	41
Valyuta kursining o'zgarishi	38	37	27	30	24	22	22	20	23	24	28	27
Transport xarajatlarining oshishi	29	32	30	27	26	25	25	24	29	30	25	25
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	26	25	22	24	26	25	27	26	26	23	24	23
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	26	26	24	24	22	22	23	20	24	22	20	19
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	18	22	35	34	31	27	26	23	25	22	24	19

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **kommunal xizmatlar** va **yoqilg'i-energiya resurslari qimmatlashishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi biroz ortgan bo'lsa, **valyuta kursining o'zgarishi**, **asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashishi** hamda **ish haqi oshishini** ta'kidlagan aholi respondentlari ulushi esa kamaydi.


# Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan sezilarli o'zgarishlarsiz saqlanib qolib, 10,7 foizni tashkil etdi



Mart, 2026

Jami 1 592 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2025									2026		
	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	46	48	43	42	40	41	45	42	45	44	42	43
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	55	54	47	47	45	44	47	46	46	43	44	40
Transport xarajatlarning oshishi	31	37	32	31	31	30	33	30	37	35	34	33
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	27	28	25	25	24	26	28	26	25	24	27	26
Valyuta kursining o'zgarishi	43	40	31	31	25	22	21	19	23	26	31	24
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	23	24	33	34	33	29	25	23	26	24	23	24
Soliq yukining yuqoriligi	27	27	25	26	24	24	23	21	24	20	23	23

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i-energiya resurslari qimmatlashishi**ni qayd etgan tadbirkorlar ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar qimmatlashishi**, **transport xarajatlari** va **xomashyo narxlari oshishi** hamda **valyuta kursining o'zgarishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi kamaygan.

# Inflyatsion kutilmalar – sohalar kesimida


Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari ishlab chiqarish sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar talabalar tomonidan qayd etildi.




Mart, 2026

Respondentlar: aholi – 3 239 ta, tadbirkorlar – 1 592 ta

## Aholi



## Tadbirkorlar



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **turizm** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **hunarmandchilik** sohasida kuzatildi.

# Inflyatsion kutilmalar – hududlar kesimida


Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar Samarqand viloyatida istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.




Mart, 2026

Respondentlar: aholi – 3 239 ta, tadbirkorlar – 1 592 ta

## Aholi



## Tadbirkorlar



Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari Toshkent shahrida kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar Navoiy viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.


# Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadi 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.



Mart, 2026

Jami 3 239 ta respondent qatnashdi



## Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar boʻyicha javoblar taqsimoti

Hudud	8% va undan kamroq	9% - 16%	17% va undan yuqori
Toshkent sh.	36	41	23
Qashqadaryo vil.	38	45	17
Namangan vil.	41	41	17
Sirdaryo vil.	43	39	19
Surxondaryo vil.	43	40	17
Xorazm vil.	43	43	14
Jizzax vil.	44	35	21
Qoraqalpogʻiston	47	40	14
Fargʻona vil.	49	34	17
Buxoro vil.	50	31	19
Andijon vil.	50	31	20
Toshkent vil.	50	31	18
Navoiy vil.	50	34	15
Samarqand vil.	53	26	21

8% va undan kamroq

9% - 16%

17% va undan yuqori



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Mart oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan biroz pasayib, 11,1 foizni qayd etdi.



Mart, 2026

Jami 3 239 ta respondent qatnashdi



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Namangan viloyatida** kuzatildi.

# Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

Fevral-mart oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar



Mart, 2026

Jami 3 239 ta respondent qatnashdi





# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadi 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.



Mart, 2026

Jami 3 239 ta respondent qatnashdi



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **ishlab chiqarish** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan boʻlsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **tashish xizmatlari** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.